




Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



2024-yil 23-iyul, seshanba,  
86 (23.963)-son

KUN  
HIKMATI  
Javondagi  
o'qilmaydigan  
kitob jihoz va  
bezakdan boshqa  
narsa emas

# Zarafshon

[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) <https://www.instagram.com/zarnews.uz>

## BIZ BIR BO'LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

↓ Prezident qaroriga ko'ra

### Siyosiy qatag'on qurbanlari xotirasi abadiylashtiriladi

19-iyul kuni davlatimiz rahbarining "Siyosiy qatag'on qurbanini bo'lgan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi.

Qarorga ko'ra, siyosiy qatag'on qurbanini bo'lgan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyatini o'rganish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyanasi tashkil etildi.

Quyidagilar Respublika komissiyanasing asosiy vazifalari etib belgilandi:

qatag'on qurbanini bo'lgan shaxslarning hayoti va faoliyatini o'rganish, ularni nomma-nom aniqlash, tarixiy xizmatlari haqidagi ma'lumotlarni, arxiv va muzeylar, kutubxonalar va turli fondlarda saqlanayotgan hujjalarni to'plash va tadqiq etish, ommalashtirish uchun ishlarni guruhlar faoliyatini tashkil etish;

qatag'on qurbanlarning avlodlari va yaqnirlari, o'sha darr voqealariiga guvoh bo'lgan insonlarning xotiralarini yozib olish, oilaviy arxiv va kutubxonalarda saqlanayotgan tarixiy manbalarini, noyob suratlarni to'plash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

Qatag'on qurbanlari xotirasi davlat muzeysi, uning hududlardi bo'limlari hamda Jadidlar merosi davlat muzeining mavzuga doir ma'lumotlar, ashyoviy dalil va hujjalarni, boshqa tegishli eksportlari bilan muntazam ravishda boyitib borilishini ta'minlash;

qatag'on qilinan yurtdoshlarimiz haqidagi tarixiy haqidatni tashkil va kelgus avlodlarga yetkazish maqsadida ko'p jildlik "Qatag'on qurbanlari" kitobini chop etish hamda ularning nomlarini Toshkent shahridagi "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasida barpo etiladigan ramziy kitob sahifalariga kiritish ishlarni davom ettilish;

cheteldagi turli fondlar, arxiv, muzey, kutubxona va boshqa ilmiy-ma'rifiy muassasalar hamda tegishli mutaxassislar bilan hamkorlik o'rnatgan holda, mavzuga oid ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etish;

yosh avlodni Vatanimiz ozodligi yo'lida jonini fido qilgan buyuk ajoddolarimiz xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning jasorati va ibratlari faoliyatini targ'ib etishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yo'iga qo'yish.

Har yili oktabr oyining birinchchi haftasi mam-lakatimiz "Siyosiy qatag'on qurbanlarini yod etish haftaligi" deb nomlandi.

Qatag'on qurbanlari va jadidlik harakati vakillari bo'lgan shaxslar tug'ilib o'sgan, yashagan xodonadonlarda esdalik lavhalari o'rnatalidi. Mahallalar, umumta'lim maktabalarda tegishli tarzda "Qatag'on qurbanlari xotirasi burchaklari", stendlar va boshqa ko'rgazmali vositalar tashkil etiladi.

Kecha viloyatimizda "Biz bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!" shiori ostida ma'naviyat festivali boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan festival doirasida ijodiy uchrushuvlar, xayriya tadbirlari, konser dasturlari o'tkazilmoqda.

Poytaxtdan kelgan taniqqli san'atkorlar, olimlar, yozuvchi va shoirlaridan iborat targ'ibotchilar bir hafta davomida viloyatimizda o'tkaziladigan festivalda qatashadi, - deydi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari Dilshod Ismoilov. - Festival "O'zbekiston - 2030" strategiyasi hamda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" davlat dasturiga uyg'un holda "Biz bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!" shiori ostida o'tyapti.

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov boshchiligidagi delegatsiya Xitoy Xalq Respublikasida bo'lib turibdi. Birinchi manzil Shinjon-Uyg'ur avtonom rayonining Urumchi shahri bo'ldi. Unda viloyat rahbari Xitoyning yetakchi sanoatchilari bilan muloqot qildi.

Viloyat hokimligi axborot xizmati xabariga ko'ra ishtirokchilari orasida Shinjon-Uyg'ur avtonom rayonidagi davalat darajasidagi birinchi Urumchi iqtisodiy va texnologik rivojlanish zonasini (Urumqi Economic and Technological Development Zone) rahbariyati ham bor edi.

Qayd etilishicha, tashkilotda 9 mingdan ortiq kompaniya ro'yxtagi olingan. Ulardan 43 tasi har yili 100 million yuan (taxminan 14,8 million AQSh dollar) dan ortiq sanoat mahsulotlari ishlab chiqaradi.

Bundan tashqari, dunyodagi barcha o'ichchadagi yuqori sifatli (Premium class) shinalar ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi TOP-20 talikka kirgan "Sailun Group" valiklari bilan uchrashev o'tkazildi.

Sindao, Dongying, Shenyang, Veyfang, Vyetham va Kambodjada ishlab chiqarish bazalariiga ega kompaniyaning mahsulot savdosini Xitoyning tashqari Shimoliy Amerika, Yevropa, Osiyo va Afrika qit'alarining 180 dan ortiq mamlakatlarini qamrab olgan.

O'zaro muloqotlarda Samarqandda Xitoy sarmoyasi asosida qo'shma korxona o'chish va hamkorlik yo'nalishlari muhokama qilindi.



## Chin o'liasi bilan hamkorlik kengaymoqda

### TUMANLAR HAM FAOL ...

Viloyat delegatsiyasi tarkibida 8 shahar va tuman hokimlari ham xizmat safariga chiqqan. Ular Xitoyning yirik investitorlari bilan muzokaralar o'tkazmoqda.

Jumladan, Past Darg'om tumani hokimi Sherzod Rahmonovning bildirishicha, "BIOYO BIOTEX" korxonasi bilan «Samarqand kamalak invest» tomonidan memorandum imzolangan.

"BIOYO BIOTEX" korxonasi qishloq xo'jaligida zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi.

- Erishilgan dastlabki kelishuvga ko'ra, tumanimizda qishloq xo'jaligi chiqindilari (g'o'za, daraxt qoldiqlari) dan biomahsulotlar tayyorlanadi, - deydi Sh.Rahmonov. - Bundan tashqari, oshxona jihozlari,

maxsus idish-tovoqlar hamda polietilen mahsulotlari ham ishlab chiqarish yo'lg'a qo'yishiga kelishildi.

### 28 MILLION DOLLARLIK KELISHUV

Tashrifning ikkinchi kuni Guanjou provintsiyasining "Guandong grand tech" korxonasi bilan «Mash'al trans servis» mas'uliyati cheklangan jamiyat tomonidan memorandum imzolangan.

Qayd qilinishicha, "Guandong grand tech" qurilish sohasida ishlashlidanigan mahsulotlarni tayyorlash bilan shug'ullanadi va ayni paytda korxona bilan dastlabki kelishuvga erishilgan.

Xitoylik investor taklif qilayotgan loyiha asosida Past Darg'om tumanida gidro blok, pardozli panel va boshqa

qurilish mollari ishlab chiqariladi. Loyiha yo'lg'a qo'yilgach, qurilish mahsulotlari nafaqat ichki bozorga chiqarish, balki Markazi Osiyo davlatlariiga faol eksport qilish rejalashtirilgan.

### MUZOKARALAR DAVOM ETADI

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov Xitoy Kompartiyasi Markazi qo'mitasi Siyosiy byurosi a'zosi, ShUAR Kompartiyasi partiya qo'mitasi kotibi Ma Sinjuy bilan ham uchrashdi.

Unda Xitoyning eng yirik va yetakchi hududlaridan biri - Shinjon-Uyg'ur avtonom rayoni bilan viloyatimiz o'rta-sida amaly hamkorlikni rivojlanishirish masalalari muhokama qilindi.

Y.MARQAYEV tayyorladi.

## Gifu va Samargandning o'xshashligi ko'p



Yaponianing Gifu prefekturasi gubernatori Furuta Xajime boshchiligidagi delegatsiya 20-iyul kuni Samargandda bo'ldi.

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov bilan uchrashev chog'ida Samarqand va Gifuda biznes forumlar tashkil etish va bu orqali tadbirkorlarning o'zaro hamkorlikda ishlashi uchun qulay muhit yaratish hamda ularni qo'llab-quvvatlash, ta'lim, turizm, axborot texnologiyalari sohalarida faol hamkorlik yuzasidan fikr al-mashildi.

Jumladan, Gifu tomonidan Samarqand shahriga "smart shahar" loyihasini taqdim etish, to'g'ridan-to'g'ri avia qatnovlarni yo'lg'a qo'yish, birligida madaniyat kunlari o'tkazish taklif etildi.

E.Turdimov Gifu prefekturasi san'at sohasi vakillarini yaqinda Samarqandda o'tkaziladigan an'anaviy "Sharq taronalar" xalqaro musiqa festivaliga taklif qildi.

- Tashrif oldidan qiziqib ko'rdim - Samarqand va bizning Gifu prefekturamiz iqtisodiyoti, tabiiy iqlim sharoiti va odamlar turmush tarzi o'tasida o'xshash tomonlar juda ko'p, - deydi Furuta Xajime. - Shuning uchun hamkorligimiz samarali bo'lishiga ishonaman. Bugun bunga yana bir bor guvoh bo'ldim. Xususan, ta'lim, turizm sohalarida yaqin aloqalarni yo'lg'a qo'yish niyatidamiz.

Gifu prefekturasi delegatsiyasi Samarqand davlat tibbiyot universitetida ham bo'lib, mazkur muassasa faoliyati bilan yaqindan tanishi va hamkorlik bo'yicha kelishuvga erishildi.

### B.MUSTANOV.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imam Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida "Imam Buxoriyning islam sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Mazkur markaz direktori Shovosil Ziyodov, Islam sivilizatsiyasi markazi direktori o'rinnbosari Firdavs Halimov, O'zbekiston musulmonlari idorasasi raisi o'rinnbosari Zayniddin Eshonqulov va boshqalar Imam Buxoriyning muqaddas islam dini rivojiga qo'shgan beqiyos hissasi, hadis-shunoslikdagi xizmatlari va buning evaziga muhaddislar sulton deb nom qozonganligi haqida so'z yuritdi.

## Ulug' muhaddis ilmiy merosi o'rganildi

Jumladan, Imam Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markaz direktori Shovosil Ziyodov ayni paytda yangidan barpo etilayotgan Imam Buxoriy majmuasida Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusiga ko'ra alloma nomi bilan ataladigan innovatsion muzej tashkil etilayotganini ta'kidlab, anjuman qatnashchilarini mazkur muzej konsepsiysi loyihasi bilan tanishitdi.

- Muzej 9 zaldan iborat bo'ladi va dastlab payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam va boshqa payg'ambarlar haqida ma'lumotlardan boshlab Imam Buxoriyning hayoti, ilm yo'li haqida xronologik tarzda hikoya qilinadi, - deydi Sh.Ziyodov. - Zallarda ulug' bobomiz yashagan davrni aks ettiradigan surat va lavhalar, qadimiy ashyolar, qo'lyozmalar, muqaddas dinimiz tarixiga oid manbalar zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida namoyish etiladi. Muzej va uning konsepsiyasini yaratishda Madina shahridagi payg'ambarimiz siyratlari va islam sivilizatsiyasi muzeysi, Istanbul, Bursa, Anqara, Parij va Britaniyadagi dunyoga mashhur muzeylerlar tajribasidan foydalndi. Davlatimiz rahbari qayd etganlaridek, Imam Buxoriy majmuasi bugun ulug' allommamiz shuhratiga munosib tarzda qaytadan bonyod etilmoqda. Ziyoratgoh ko'rkam va salobatlari bo'lishi tabiiy. Lekin bu yerga kelgan kishilar majmuani faqat ziyorat qilish bilan cheklanmay, undan ma'rifat o'rganishi, saboq olishi kerak. Qalbi ilm va hikmat nurlari bilan munavvar bo'lishi lozim.

Alloma xotirasiga va merosiga chuqur hurnat-ehtirom tariqasida "Sahihul Buxoriy" to'plamiyat qilindi.

## Odamlar orasida



Targ'ibotchilar Vatanni madh etuvchi chiqishlari bilan tadbir ishtirokchilariga o'zgacha kayfiyat bag'ishlaysi.

Targ'ibotchilarning bir guruhi Past Darg'om tumanidagi jazoni ijro etish muassasasiga bordi.

hamda bir guruh mashhur insonlar keldi. Ularni men faqat televizor orqali ko'rganman. Saratonning issiq kunlari qalbimizda bahoriy kayfiyat uyg'ondi.

Targ'ibotchilar tumandagi ayrim mahallalarda bo'lib ehtiyojmand oilalar holidan xabar oldi.

- Ota-onasidan ayrilgan 14 yashar pastdarg'omlik qiz bilan suhabatlashdim, - deydi O'zbekiston Respublikasi da xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi Jamila Shermuhammedova. - U O'zbekistonda tug'ilganidan faxraniyini, o'zini yetim his qilmasligini aytganda ko'zinga yosh keldi. Uniga sovg'a-salomlar ulashildi. Sovg'alar orasida kitoblar borligidan u xursand bo'lganligini ko'rib, yana bir karra hayratlandim.

Shunday targ'ibot tadbirlari Nurobod tumanida ham tashkil etildi.

To'qin SIDDIQOV,  
Baxtiyor MUSTANOV (surat).



## Yarim yillikdagi iqtisodiy natijalarimiz qanday?

**Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 17-iyul kuni hududlar va tarmoqlarda iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha birinchi yarim yillik tahlili hamda yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.**

Tabiiy savol tug'iladi, xo'sh viloyatimizda ahvol qanday?

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tahliliga ko'ra, yalpi hududi mahsulot hajmi 36,9 trillion so'm (2,9 million dollar)ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,1 foiz bo'lgan.

Yilning keyingi davrida yalpi hududi mahsulot hajmi 87,4 trillion so'mni, o'sish sur'ati 105,6 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

### CHETDA KIMGA QANCHA NARSA SOTILDI?

Olti oy davomida viloyatdagidagi 438 ta korxona 554 turdagisi mahsulot eksport qilgan. Xususan, 80 million dollarlik metal va tayyorlangan buyumlar, 74 million dollarlik meva-sabzavot, 61,5 million dollarlik to'qimachilik, 44,9 million dollarlik oziq-ovqat qirjiga sotilgan.

Ushbu davrda Tailand, Italiya, Kanada va Koreya kabi yangi bozorlar o'zlashtirilgan. Rossiya (107,7 million), Xitoy (37,7 million), Qozog'iston (23,3 million), Turkiya (16,6 million), Tojikiston (14,9 million) asosiy hamkor davlatlar bo'limoqda.

Darvoqe, yarim yillikda 104 ta korxona xo'rja tovar va xizmatlar sotish jarayoniga yangi qo'shilgan. Xususan, Kattaqo'rg'on shahrida "Zexra kollection" mas'uliyati cheklangan jamiyat 12,3 million dollarlik mis, Paxtachi tumani tahlili "Baxt Samarkand teks" mas'uliyati cheklangan jamiyat 4 million dollarlik to'qimachilik mahsulotlari Xitoy, Turkiya, Qozog'iston, AQSh va Rossiya eksport qilgan.

Hisobot davrda 7 million dollarlik 5 ta yan-gi turdagisi mahsulot xorijiga chiqarildi. Misol uchun, "Navabod naslli parranda" korxonasi Xitoya 6 million dollarga parranda oyoqchalarini sotgan.

Albatta bu o'rinda eksportyornlari qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratayotganini qayd etish o'rinni. Jumladan, tovar yoki xizmatlarini chetga chiqarayotgan 14 ta korxonaga aylanna mablag' uchun 9,1 million dollar kredit berilgan, shu davrda ular 8,8 million dollarlik mahsulot eksport qilib, yil yakunigacha bu ko'rsatkichga 23,8 million dollar qo'shishni rejalashtirmoqda.

Bundan tashqari, 6 ta korxonaning xalqa-ro standart va sertifikat tizimini joriy qilish bo'yicha 804 million so'm xarajati qoplab berilgan.

Viloyatdagi 9 ta korxona Xitoyning bojxonasi maxsus xizmati ro'yxtiga kiritilgach, 1,7 million dollarlik eksportni amalga oshirgan. Misol uchun, reestriga kiritilgan "Agro Gumush Jomboy" korxonasi xitoyliklarga 135 ming dollarlik quritigan oxo'ri sotgan.

Yana bir muhim ma'lumot, 64,4 million dollarlik eksport qilgan 94 ta korxonaga tashish xarajatining bir qismi - 24,5 million so'm qoplab berilgan.

Ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijasida ikkinchi yarim yillikda 598 million dollarlik eksport va o'sish 163,8 foiz bo'lishi rejalashtirilgan.

Jumladan, 20 million dollarlik sement, armatura, jyida, santechnika fittinglari, prut va kollektorlar, mis kabellari, o'simliklarni kimyoiy himoyalash vositalari kabi o'ndan ortiq yangi turdagisi mahsulot xorij bozorlariga chiqariladi.

### OLIB KELGANIMIZ-CHI?

Ma'lumotlarga ko'ra, viloyatning birinchi yarim yillikdagi tashqi savdo aylanmasi 1158,9 million, shundan eksport 330,4 million (+128 foiz), import 828,4 million (- 8 foiz) dollarni tashkil qilgan.

Eksport-import operatsiyalari 67 ta (2023-yilda 62 ta) davlat bilan amalga oshirilgan.

Viloyatimiz importidagi asosiy ulush Xitoy, Rossiya, Sloveniya, Turkiya, Germaniya, Polsha, Qozog'iston va Litva davlatlariga to'g'ri kelgan. Tahillarga ko'ra, Sloveniya, Turkiya va Germaniyadan o'tgan yilgidan ko'proq

import amalga oshirilgan.

Farmatsevtika, transport va ehtiyoj qismi, texnologiya uskunalar, plastmassa, to'qimachilik, kimyo sanoati mahsulotlari, oziq-ovqat, yem-ozuqa, metal buyumlar asosiy import mahsulotlari hisoblanadi.

### TADBIRKORLIK RIVOJLANTIRILIB, BANDLIK OSHIRILADI

Yarim yil davomida "2 million aholini bingesga jalb qilish dasturi" doirasida 156 ming aholi biznesga jalb etilgan. Bunda o'zini o'zi band qilishda 126,6 ming, YaTTlarda 11,9 ming, yangi tadbirkorlik subyektlarida 4,7 ming, dehqon xo'jaliklarda 12,9 ming aholi bandligi ta'minlangan.

Ushbu ko'rsatkichlarga erishish uchun 54 ta davlat aktivlari auksionga chiqarilib, 59 ta obyekt 69,2 milliard so'mga sotilgan. Shu davrda 2,8 mingta xizmat va servis obyektlari ishga tushirilib, 83,4 ming ish o'rni yaratilgan.

Qiymati 116,5 milliard so'mlik 77 ta xalqaro yo'l bo'yli loyhalarida 343 ta yangi ish o'rni yaratilgan.

Ushbu yo'nalishda yilning ikkinchi yarmiga mo'ljallangan rejalar raqam va samara yana-da yuqori bo'lishiga qaratilgan. Jumladan, "2 million aholini biznesga jalb qilish dasturi" doirasida 228 ming aholi biznesga jalb etiladi.

84 ta davlat aktivlari auksionga chiqarish orqali budjetga 126,4 milliard so'm tushum ko'zda tutilyapti.

Joylarda 2,7 mingta xizmat va servis obyektlari ishga tushirilib, 86,6 ming aholi bandligi ta'minlanadi.

Xalqaro avtomobil yo'llari bo'yida qiymati 839,4 milliard so'mli 140 ta loyiha amalga oshiriladi va 1974 ta yangi ish o'rni yaratilgan.

Umuman, ortda qolgan olti oyda viloyatda 149,5 ming o'rnga amalda 215,9 ming (136,5 ming doimiy, 79,4 ming mavsumiy va vaqtinchalik) ish o'rnlari yaratilgan.

Bu ko'rsatkich 3,5 ming investitsiya loyhalarida, 105,3 ming xizmat ko'rsatish va tadbirkorlik sohasida, 98,8 ming qishloq xo'jaligida, 8,3 ming qurilish sohasida qayd etilgan.

Misol uchun, Samarqand shahrida "Samarkand apparel" mas'uliyati cheklangan jamiyatini tomonidan may oyida trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasida 145 ta ishiz qarolining doimiy bandligi ta'minlangan.

Yil yakunigacha yana 128,5 ming aholining doimiy, 72,4 ming kishining mavsumiy va vaqtinchalik ishlarida bandligi ta'minlangan.

Kambag'allikkala tushish xavfi mavjud 107,1 ming aholi daromadini oshirish va 25,1 ming kambag'al oilalarni manzilli qo'llab-quvvatlash orqali kambag'allikkadan chiqarilib, kambag'allik darasasi yil boshidagi 10,5 foizdan 7,7 foizga tushiriladi.

### INVESTITSIYA YANGI ISH O'RNI YARATADI

Yil boshidan buyon viloyatimizda 653,5 million dollar (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 177,6 foiz) miqdorida xorijiy investitsiya jalb etilgan.

Bunda tarmoq loyihalarda 129,3 million dollar, hududu dasturdagi 141 ta loyiha 524,2 million dollar o'zlashtirilgan. Ahamiyatlisi, hududu dasturdagi 141 ta loyihadan qiymati 14,2 million dollarlik 3 ta loyiha ishga tushirilib, 85 ta ish o'rni yaratildi.

Jumladan, "CCI Samarkand limited" mas'uliyati cheklangan jamiyatining Jomboy tumani "Coca-Cola" va boshqa salqin ichimliklar ishlab chiqarish loyihasida 36 million, "Hengfeng foods" qo'shma korxonasing Ishtixon tumani qishloq xo'jalik mahsulotlari qayta ishslash loyihasida 8 million, "Samarkand city story" mas'uliyati cheklangan jamiyatining Samarqand shahridagi "Samarqand-siti" majmuasini tashkil etish loyihasida 5,5 million dollar o'zlashtirilgan.

Hududu dasturdagi investitsiyalarning 494 million dollarli to'g'ridan-to'g'ri xorijiy

## Ijtimoiy-iqtisodiy hayot

investitsiya va 30 million dollarli davlat kafolati ostidagi kreditlarni tashkil etган.

Korijiy investitsiyalarning 40 foizi Xitoy, 35 foizi Turkiya, 22 foizi BAA, qolgan 3 foizi Rossiya, AQSh, Ozarbayjon, Germaniya, Buyuk Britaniya, Eron va boshqa davlatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, yil oxiriga qadar qiyomi 154,7 million dollarlik yana 13 ta loyiha ishga tushirilib, 795 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Umuman, investitsiya dasturlari doirasida qiyomati 2,1 trillion so'mlik 380 ta loyiha ishga tushirilib, 3 mingdan ortiq yangi ish o'rni ochiladi.

Bu 2023-yilning 6 oyiga nisbatan 2,7 milliard so'm ko'p investitsiya, yaratilgan ish o'rni 625 ta ziyod degan.

Misol uchun, Samarqand shahridagi "Yevro plaza M" mas'uliyati cheklangan jamiyatining qiyomati 58 milliard so'mlik savdo va maishiy xizmat ko'rsatish loyihasida 161 ta, Kattaqo'rg'on shahridagi "Zexra kollection" mas'uliyati cheklangan jamiyatining qiyomati 40 milliard so'mlik rangli metallarni qayta ishslash loyihasida 60 ta ish o'rni yaratilgan.

### O'ZIMIZDA CHIQADI...

O'tgan olti oyda viloyatdagi 57 ta korxona 95 ta loyiha asosida import o'rnni bosuvchi 1,1 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqargan.

Misol uchun, Jomboy tumani "BRAD-JUS" mas'uliyati cheklangan jamiyatida tez pishar lag'mon, Paxtachi tumani "Paxtachi rodnik" mas'uliyati cheklangan jamiyatida margarin, Toyloq tumani "PUREMILKY WORKS" mas'uliyati cheklangan jamiyatida quritilgan sur zardobi ishlab chiqarish mahalliyashtirilgan.

Sanoat kooperatsiyasi asosida "SamAvto" MChJ buyurtmasi asosida "Esmak avtomotiv" MChJda (Past Darg'om) import o'rnni bosuvchi 6 turdag'i mahsulot ishlab chiqarish yo'lg'a qo'yilgan.

Bu yerda tayyorlangan avtobuslar uchun o'rindiqlarning narxi importga nisbatan 18 foiz, avtobuslar uchun havo sovutkich (kondisioner) narxi esa 17 foiz arzonlashgan.

Yil yakunigacha 50 dan ortiq yangi loyihani amalga oshirish hisobiga vakuumli ajaratichilar, laminat, qurilish materiallari, mebellar uchun ehtiyoj qismlari (aksessuarlar), issiqxonalar va tovuzxonalar uchun gazli isitish pechkalari, inkubatorlar, maishiy changyutikchilar, sovutkichlar, isitkichlar, sanoat sovutkichlari va muzlatgichlar ishlab chiqarish o'zlashtirilishi rejalashtirilgan.

Ishlab chiqarish, sanoat rivoji haqidagi gap ketganda "Urgut" erkin iqtisodiy zonasiga faoliyatiga to'xtalmaslikning iloji yo'q. Zotan, olti oyda bu yerdagi korxonalar 2083,3 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarib, 64,1 million dollarlik mahsulot eksport qilgan.

Shuningdek, bu yerda qiyomati 5,7 million dollarlik 3 ta loyiha ishga tushirilib, 208 ta yangi ish o'rni yaratilgan. Misol uchun, "Urgut sifat plast" mas'uliyati cheklangan jamiyatining 1,2 million dollarlik plastmassa mahsulotlari, "Tekom elevating systems" mas'uliyati cheklangan jamiyatining 3,3 million dollarlik "lift, esklator va metallokarkas ishlab chiqarish va "Modern Uzbek Tekstil" mas'uliyati cheklangan jamiyatining 1,3 million dollarlik kiyim-kechak ishlab chiqarish loyihalarini ishga tushirilgan.

Yana bir ma'lumot, hududda 58,2 hektar yer maydoni auksionda sotilib, qiyomati 257 million dollarlik 19 ta loyiha joylashtirilgan. Ushbu loyihiyalarni orqali 149,3 million dollar xorijiy investitsiya o'zlashtirilib, 1298 ta ish o'rni yaratiladi.

### JADAL O'SAYOTGAN SOHA

Viloyatda 248,3 ming hektar asosiy maydoniga ekin ekilgan. Jumladan, 73,2 ming hektar g'o'za, 94,2 ming hektar g'allla, 23,1 ming hektar sabzavot, 1,5 ming hektar poliz, 21 ming hektar kartoshka, 2,5 ming hektar dukkakli, 7 ming hektar moyli, 7,3 ming hektar ozuqa, 4,2 ming hektar meva, 5,5 hektar ozuqa ekinlari ekilyapti.

Sohada yilning o'tgan davrida qiyomati 451 milliard so'mlik 104 ta hududu loyiha ishga tushirilib, 641 ta ish o'rni yaratiladi.

Jumladan, 4,2 ming hektar bog' va 5,6 ming hektar tokzor barpo etilgan. 87,6 million hektar 450 ta texnika xarid qilingan.

Yil yakunigacha 53,5 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarish ko'zda tutilgan. Xususan, 876 ming tonna don, 292 ming tonna paxta, 1638,8 ming tonna sabzavot, 761,2 ming tonna kartoshka, 190,9 ming tonna poliz, 395,8 ming tonna meva, 675,7 ming tonna uzum, 338,5 ming tonna go'sht, 1445,7 ming tonna sut, 1376,2 million dona tuxum, 19,2 ming tonna baliq ishlab chiqariladi.

Shuningdek, dehqon xo'jalik tashkil qilish uchun yoshlariga 7 ming hektar suvli yetarilatilgan, 17 ming yosh ish bilan band qilingan.

Dastlabki yarim yillik tahsilari ko'ra, qishloq xo'jaligi o'sish sur'ati viloyatda eng yuqori sohalardan biri sanaladi. Ushbu yo'nalishda viloyatimiz respublikada uchinchini qayta ishlab chiqish, hududda himoya qo'rg'onlari barpo etish bo'yicha fermerlar va boshqa

Yoqub MARQAYEV.

Samarqand tumanidagi 74 ta mahallada 270 mingga yaqin aholi istiqomat qiladi. Yil boshida hududda kambag'allilik darajasi 7,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, hozir 6,2 foizga tushgan. Yil yakunigacha bu ko'rsatkichni 5,5 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Mazkur natijaga qanday erishilayotgani, umuman, tumandagi hokim yordamchilarining faoliyat yo'nalishlariga qiziqdiq.

## Ishsizlik nafaqasini oluvchilar kamaydi

— Aholini ish bilan ta'minlashda mikroloyihalarning ulushi ko'p, - deydi tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi bosh mutaxassis Turobjon Abbosov. — Joriy yil tumanda 740 ta shunday loyihiani amalga oshirish vazifasi qo'yilgan bo'lsa, 10-iyul holatiga tizimga 844 ta loyiha bo'yicha taklif kiritilib, shundan 615 tasi tasdiqlangan va 1162 ta yangi ish o'rni yaratilgan.

— Aholini ish bilan ta'minlashda mikroloyihalarning ulushi ko'p, - deydi tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi bosh mutaxassis Turobjon Abbosov. — Joriy yil tumanda 740 ta shunday loyihiani amalga oshirish vazifasi qo'yilgan bo'lsa, 10-iyul holatiga tizimga 844 ta loyiha bo'yicha taklif kiritilib, shundan 615 tasi tasdiqlangan va 1162 ta yangi ish o'rni

# Maqsadimiz – rahm uyg'otish emas!



Boshingdan o'tgan qiyinchiliklarni boshqalarining his qilmasligi, ularga dalda bo'lish kerakligini o'ylash insoniyikdan darak. Ammo shu jarayon uchun harakat qilish nafaqat jur'at, balki fidoyilik hamdir.

Nargiza Mahmudova bundan bir necha yillar avval farzandi tug'ilganda shunday yo'l tutaman, deb sira o'ylamagandi. To'g'riroq'i, bu haqda o'ylashga uning vaqtini ham, xohishi ham yo'q edi. 2007-yil tug'ilgan qiziga DAUN sindromi tashkisi qo'yilganda, u butunlay karaxt holga keldi. Chunki bunday holatni ilgari na qarindoshlari va na atrofda gillarda ko'rgan. Nima qilish kerak, bu bolani qanday parvarishlash lozim?

O'sha paytlarda internet hoziriday rivojlanmangan, - deydi Nargiza Mahmudova. - Kitoblardan shu kasallikka doir ma'lumotlar qidirdim, bunday bolalarga qanday qarash kerakligini o'rgandim. Boshqa hududlarda onalar qanday yo'l tutarkin, nima qilisharkan kabi savollar qiyin boshladidi. Shunday paytda internet kafe-ga kirib, ular haqida o'qiy boshladim. Bilasizmi, izlayotgan ma'lumotimni hech kim ko'rmayaptimikan, degan xavotirda bo'lardim, uni hech kimga ko'rsatmaslikka intildim. Go'yoki, men gunohkorman. Bu hisdan qutilishim kerak edi, shunga harakat qildim. Yillar o'tgani sayin tajribam ortdi, DAUN sindromli bolalarga qanday parvarish kerakligi, ularning ta'lim olishi va boshqa masalalarda ko'p narsalarni o'rgandim va ularga amal qildim.

## AVALO, ONA RUHIYATINI YAXSHILASH KERAK

Oradan bir necha yillar o'tib, Nargiza ko'plab DAUN sindromi bo'lalar shunchaki taqdир izmiga tashlab qo'yilganiga guvoh bo'ldi. Onalarning ular bilan shug'ullanishiga ko'p hollarda vaqt yo'q yoki buni qanday amalga oshirishni bilmaydi. Bir nechta shunday ayollarni uchratgach, tashabbusli guruh sifatida bir-birlari bilan suhbatlashdi, farzandlarini do'stlashтиди. Onalar bolaga qanday qarash bo'yicha bir-birdan o'rgana boshladidi. Bu guruh keyinroq – "Imon" nomi bilan nodavlat notijorat tashkilotiga aylandi.

- Bilasizmi, imkoniyati cheklangan farzandi bor oilada avvalo, ona yordamga muhitoj bo'lar ekan, - deydi Nargiza. - Birinchidan, u ayolga nisbatan uydagilarining munosabati yomonlashadi. Go'yo nuqsonli farzand tuqqani uchun u aybdorday. Oqibatda u bolasiga qarash haqida emas, o'zini himoya qilish haqida ko'proq o'yay boshlaydi. Ushbu nodavlat notijorat tashkilotini tashkil etganimizda, bu kabi ayollarga siz yolg'iz emassiz, gunohkor emassiz, siz keraklisiz, degan tushunchani singdirishga harakat qildik. Tadbirlarimiz bayram dasturxonlari yuushtirish yoki kimgadir nimadir tarqatishdan iborat emas. Afsuski, avvaliga ko'p onalar safimizga qo'shilganda, "sov'a yo'qmi, bizni nega chaqirdingiz o'zi", kabi gap-so'zlarga ham duch kelganimiz. Bu bolalar uya, tengdoshlaridan uzilgan holda katta bo'imasligi kerak. Ular bilan doimiy ravishda shug'ullanish, ularni to'garaklarga jaib qilish lozim.

## BOLA – QUROL EMAS

Yuqorida ta'kidlaganimday, ota-onalarning o'zi ham alohida ehtiyoja ega bola bilan qanday munosabat o'rnatishni bilmaydi. Uni yashirishni istaydi yoki undan qurol sifatida foydalananadi. Qanday masala bo'lmisin, ular nogiron farzandi haqida gapirishga va oиласидаги моддий масаласини hal qilib olishni istaydi. Bu hech qanday me'yorga to'g'ri kelmaydi. Bu bolaga nisbatan haqorat, aslida.

Biz tashkilotimiz va guruhimizdagagi ota-onalar shunday bolalar borligi va ular ham boshqa bolalar singari ta'lim olish, bo'sh vaqtini mazmuni o'tkazish uchun ozgina sharoit bo'lishi tarafdorimiz, xolos.

